

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**XALQARO MUNOSABATLARDA DISKURSNING LINGVOPRAGMATIK
XUSUSIYATLARI**

Numonova Saida Sotvoldiyevna

Andijan State Foreign Institute

Faculty of Romance, Germanic and

Slavic Languages, Department of

General Linguistics, Doctoral student

Kirish

Globalashuv davrida xalqaro munosabatlar siyosiy va iqtisodiy omillar bilan birgalikda, til va diskurs orqali ham shakllanib bormoqda. Diskurs – bu tilshunoslikda keng qamrovli tarzda qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, odamlarning ma‘lum bir maqsad, vaziyat va ijtimoiy sharoitda til vositasida amalga oshiradigan nutqiy faoliyat hisoblanadi. Diskursni quyidagi turlarga ajratish mumkin: a) siyosiy diskurs- prezident nutqlari, parlament munozaralari; b) ilmiy diskurs-maqolalar, konferensiya chiqishlari; d) kundalik diskurs – oddiy suhbatlar, muloqot; e) diniy diskurs- va‘zlar, diniy kitoblar matni. Diskurs diplomatik muloqot, muzokaralar olib borish va nizolarni oldini olish yoki ularni kuchaytirishda muhim poydevor vazifasini o‘taydi. Xalqaro diskursning pragmatik tahlili yashirin niyatlar, kuch munosabatlari va madaniy kodlarni ochib berishga yordam beradi. Diskursni o‘rganishning dolzarbligi shundaki, bugungi globalashuv davrida til faqat grammatik qoidalar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi va boshqaruvchi vosita sifatida ham qaraladi. Diskurs tahlili tilning turli vaziyatlarda foydalanish usullarini, jamiyatdagi siyosiy, madaniy va mafkuraviy jarayonlarni ifodalash yo‘llarini ochib beradi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, siyosiy chiqishlar, reklama va internetdagi kommunikatsiya jamiyat ongiga kuchli ta‘sir ko‘rsatayotgani bois diskursni o‘rganish alohida e‘tborga muhtoj. Shu bilan birgalikda, diskurs strategiyalarini bilish madaniyatlararo muloqotni samarali olib borishga, ijtimoiy tengsizlik va hokimiyatni til vositasi yordamida ifodalanishi usullarini tushunishda ham dolzarbdir. Shu bois, zamonaviy lingvistika va gumanitar fanlarda diskursni o‘rganish eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri aylangan.

Tadqiqot maqsadlari

Ushbu tadqiqotning maqsadi:

- a) Xalqaro munosabatlarda qo‘llaniladigan diskursning lingvopragmatik jihatlarini tahlil qilish.
- b) Siyosiy va diplomatik nutqda ishlatiladigan strategiya va taktikalarning mazmunini yoritish.
- c) Diskurs orqali davlatlar o‘z manfaatlarini qanday ifoda etishini aniqlash.

Materiallar va metodlar

Material sifatida xalqaro tashkilotlar (BMT, YXHT, Yevropa Ittifoqi) majlislarida ishlatilgan nutqlar, xalqaro konferensiyalar bayonotlari va yetakchi siyosatchilarning murojaatlari tanlab olindi. Metod sifatida lingvopragmatik tahlil, diskurs tahlili va qiyosiy tahlil qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari

Diskurs xalqaro munosabatlarda ikki asosiy vazifani bajaradi: diplomatik muvozanatni saqlash va siyosiy pozitsiyani mustahkamlash. Lingvopragmatik jihatdan qaralganda, xalqaro diskursda quyidagi strategiyalar ko‘p qo‘llaniladi;

a) Ishontirish, ko‘ndirish (ko‘proq ijobiy taassurot qoldirish maqsadida); masalan, “Bu loyiha nafaqat moliyaviy foyda keltiradi, balki jamoamizning obro‘cini ham oshiradi. Agar siz ham qo‘llab-quvvatlasangiz, yanada tezroq muvaffaqiyatga erishamiz.”

Bu nutqiy vaziyatda so‘zlovchi perlokutiv maqsad sifatida suhbatdoshni o‘z pozitsiyasiga ishontirishni ko‘zlaydi. “Nafaqat..., balki...” konstruksiyasi orqali argument kuchaytiriladi, “siz ham qo‘llab-quvvatlasangiz” shakli esa sheriklik hissini uyg‘otadi. Shu sababli, Ishontirish va ko‘ndirish akti tinglovchiga ijobiy taassurot qoldirish, uning qarorini faoliyatga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

b) Diplomatik yumshatish (keskin fikrlarni bevosita emas balkim bilvosita ifodalash uchun); masalan, “Albatta, sizning fikringiz qiziqarli, biroq ehtimol boshqa variantlarni ham ko‘rib chiqish foydali bo‘lar.”

Bu gapda keskin inkor bevosita aytilmaydi. “Qiziqarli” so‘zi yordamida ijobiy baho berilib, keyingi “biroq ehtimol...” qismi bilan muloyim rad etish amalga oshirilmoqda. Bu hodisa indirekt (bilvosita) illokutiv akt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, diplomatik yumshatish kommunikatsiyada konfliktning oldini oladi, hamkorlikni saqlab qolish imkonini beradi.

c) Hamkorlikni ta‘minlash (birgalikdagi qarorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun). Masalan, BMT yig‘ilishlarida “hamkorlik”, “barqarorlik”, “tinchsizlik” kabi kalit so‘zlar siyosiy niyatlarni yumshoq va universal shaklda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “Agar hammamiz ushbu rejaga amal qilsak, natijaga tezroq erishamiz. Kelinglar, buni birgalikda amalga oshiramiz.”

Bu nutqda “hammamiz”, “birgalikda” kabi inklyuziv birlik shakllari qo‘llanib, umumiy mas‘uliyat va birdamlikni ta‘kidlamogda. Bu kollektiv illokutsion kuchni bildiradi, ya‘ni qaror bir shaxsga emas, guruhga taalluqlidir. Hamkorlikni ta‘minlovchi nutqiy aktlar jamoaviy ruhni mustahkamlaydi va qo‘shma maqsad sari harakatni rag‘batlantiradi. Diplomatik yumshatish kommunikatsiyada konfliktning oldini oladi, hamkorlikni saqlab qolish imkonini beradi Lingvopragmatik jihatdan qaralganda, xalqaro diskurs yashirin kuch munosabatlarini, mafkuraviy qarashlarni va kommunikativ strategiyalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu uch tipdagi nutqiy harakatlar (ishontirish, diplomatik yumshatish, hamkorlikni ta‘minlash) pragmatik jihatdan turlicha vazifani bajaradi, ammo ularning barchasi kommunikativ samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Xulosa

Diskursning lingvopragmatik xususiyatlari xalqaro munosabatlarda davlatlar o‘rtasidagi muloqotning samaradorligini belgilaydi. U til vositalari orqali siyosiy strategiyalarni ifodalash, nizolarni yumshatish va hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Shunday qilib, diskursni lingvopragmatik nuqtai nazardan chuqur o‘rganish xalqaro kommunikatsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.